

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.R.Mehmonova	
Dialogik nutq va uning birliklari.....	258
N.Y.Ortiqova	
Tovushga taqlid so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari (Anvar Obidjon asarlari misolida).....	262
F.S.Karimova	
Fanlararo yondashuv bilingvizmni o'rganish metodologiyasi	268
N.M.Karimova	
Prose in english and russian literature	273
R.X.Xayitova	
Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan nostalgik leksik birliklarning tahlili.....	278
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida metaforaning qo'llanishi	283
D.N.Abduvaxabova	
Kompyuter lingvistikasida emotiv so'zlarni aniqlash va ularning tarjimasida	287
Г.А.Воҳидова	
Этимологияи баъзе калимаҳо дар "Ғиёс-ул-луғот"-и Муҳаммад Ғиёсиддин.....	290
Л.Т.Галимуллина, Ш.И.Иброхимова	
Исследования влияния языковых контактов на тюркские языки: история и классификация	296
Н.К.Аббасова, Ш.А.Тожибоева	
Роль медиа в образовании	303
D.G'.Gafurova	
Zamonaviy hikoyalarda peyzaj tasviri.....	307
Z.Akbarova, Z.M.Sobirova	
O'qish tezligi va matnni tushunish: neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan.....	311
Z.A.Akbarova, D.T.Ziyoidinova	
Afaziya turlari tahliliga neyropsixolingvistik yondashuv.....	315



UO'K: 821.111.09

ZAMONAVIY HIKOYALARDA PEYZAJ TASVIRI
(*Isajon Sulton va Nazar Eshonqul hikoyalari asosida*)**ОПИСАНИЕ ПЕЙЗАЖА В СОВРЕМЕННЫХ РАССКАЗАХ**
(*По мотивам рассказов Исажона Султана и Назара Эшонкула*)**LANDSCAPE DESCRIPTION IN MODERN STORIES**
(*Based on the stories of Isajon Sultan and Nazar Eshonkul*)**Gafurova Dilobar G'ayratoliyevna**
Farg'ona davlat universiteti doktoranti**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy yozuvchilar ijodida tabiat hodisalari misolida qahramon ruhiyati, syujet tizimini ochib berilishi, xususan, hikoyalarda g'oyaning badiiy-falsafiy ma'nolari tahlil etilgan. Xususan, shamolning hamma zamon va makonga kirishi, har erda sodir bo'la olishi, turli ko'rinishlarda akslanishi, ya'ni yoqimli shabadadan tortib dahshatli dovul shaklida turlanishi, salbiylik va ijobiylik xususiyatlarini o'zida mujassam etishi bilan muallifning har qanday maqsadiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan o'rganildi.

Abstract

The article analyzes the artistic and philosophical meanings of ideas in the stories of modern writers, in particular, the disclosure of the hero's psyche and the plot system using natural phenomena. In particular, the wind was studied from the point of view of the fact that it can penetrate into all times and places, can arise anywhere, can take various forms - from a pleasant breeze to a terrible hurricane, and can serve any purpose of the author, embodying the characteristics of negativity and positivity.

Аннотация

В статье анализируются художественные и философские смыслы идей в рассказах современных писателей, в частности, раскрытие психики героя и сюжетная система с использованием природных явлений. В частности, ветер изучался с точки зрения того, что он может проникать во все времена и места, может возникать где угодно, может принимать различные формы — от приятного ветерка до ужасного урагана, и может служить любой цели автора, воплощая в себе характеристики негатива и позитива.

Kalit so'zlar: *peyzaj, qahramon xarakteri, badiiy detal, asar pafosi, "Tilsim lashkari", "Bepoyon osmon", "Qultoy".*

Key words: *landscape, character of the hero, artistic detail, pathos of the work, "Tilsim lashkari", "Bepoyon osmon", "Qultoy".*

Ключевые слова: *пейзаж, характер героя, художественная деталь, пафос произведения, "Tilsim lashkari", "Bepoyon osmon", "Qultoy".*

KIRISH

Badiiy asar strukturasini - butunlikning tashkillashda, undagi voqelik, obrazlar, peyzaj tasvirlarini tashkil etayotgan detallarning o'zaro aloqalari, ularning qay tarzda butunlik hosil qilishini aniq tasavvur etmasdan turib, asar mazmuni va g'oyasini to'la anglash, tushunish qiyin. Hatto o'rni kelganda birgina detalning nazardan chetda qolishi ham butunning mohiyatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunki, bularning bari asardagi struktura mazmunining mantiqiy tashkillanishi uchun lozim, o'sha mantiqni yoritmay asardagi mazmuniy jozibani ilg'ash maholdir. Muallif asar g'oyasini tasvirlashda ko'pincha tabiat unsurlaridan foydalanadi. Chunki bu omillar, xususan, shamol hamma zamon va makonga kirishi, har erda sodir bo'la olishi, turli ko'rinishlarda akslanishi, ya'ni yoqimli shabadadan tortib dahshatli dovul shaklida turlanishi, salbiylik va ijobiylik xususiyatlarini o'zida mujassam etishi bilan muallifning har qanday maqsadiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan cheksiz imkoniyatlarga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy asarlar muallifi Isajon Sulton ijodida tabiat hodisalari misolida qahramon ruhiyati, syujet tizimini ochib berish holatlari ko'p uchraydi. Muallif hikoyalarida g'oyaning falsafiy ma'nolari chuqur ask ettiriladi. Asardagi har bir mayda detalgacha muayyan mazmuniy yukni tashiydi. Hech qanday narsa, belgi, peyzaj shunchaki tasvir uchungina berilmaydi. Buning zahirida yozuvchining muayyan maqsadi, asar badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita bor. Shamol bilan bog'liq tasvir ob'ektlari yozuvchi poetik olamining eng yorqin, ko'zga tashlangan nuqtalaridir. Chunki aksariyat hikoylarida shamol(detali, obraz, motiv) bilan bog'liq lavhalar bo'rtib ko'rinadi.

"Tilim lashkari yohud Muqanna" hikoyasida shamol syujetning asosiy markazida harakat qiladi, asar strukturasida muhim komponent funksiyasini bajaradi. Mazkur hikoyada shamol mislsiz kuch-qudrat timsoli sifatida keltirilgan. Hikoya boshlanishida kechga yaqin tobora kuchayib borayotgan shamol tasviri o'quvchida hozir qandaydir sirli, tahlikali, shiddatli hodisalar ro'y berishi kabi tasavvur uyg'otadi. Shamolning avjiga chiqishi va keksalar tarafidan "Jodu shamoli" deb atalishi, uning yilda bir bo'lib, olamning to's-to'palonini chiqarishi va u nihoyat jodu shamoli haqidagi rivoyat hikoyaga qo'rqinch va hayajon ruhini singdiradi. Bu hayajon va vahima kitobxonni asarni ichiga sho'ng'ib ketishiga sabab bo'ladi. Muallif shamol orqali juda muhim sirni pichirlab aytayotgandek tuyuladi, butun diqqatni rivoyatga qaratadi. Hakim ismli dehqon yigitning shamolli kechada nom-nishonsiz yo'qolishi va bir yil o'tgach, shamolli kecha uyiga qaytishi, uning tilim lashkarining chiqib kelishi, ulkan va qudratli qo'shin, "nurli jamol sohibi" haqidagi hikoyasi, yuzidagi niqob va bular olamni shamol boshqargan tunda sodir bo'lgani, shamolning lashkarga xizmat qilishi kabi mistik hodisalar, turli ilohiylashgan xalq rivoyatlari talqinidagi yozuvchi badiiy hayolotining maxsuli deyish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Arablarga qarshi xalq ozodligi harakati rahnamosi bo'lgan Muqanna haqidagi qarashlarga ko'ra uning aslida qahramon emas, nayrangboz va yolg'onchi bo'lgani, o'sha davrda xalqning arablarga bo'lgan noroziligidan o'z foydasi uchun unumli foydalangani tarixiy ma'lumotlar asosida tasdig'ini topgan. Uning nurli jamol sohibi deb keltirilishi ham xalq rivoyatlari asosiga qurilgan. Emishki, Muqannaning yuziga boqsa, uning nuriga bardosh berib bo'lmas ekan. Ammo tarixiy ma'lumotlarga tayanilsa, Hoshim ibn Hakimning bir ko'zi ko'r, yuzi juda xunuk bo'lgani tufayli doim niqobda yurgani, "Muqanna – niqobdor" laqabini olgani haqiqatga yaqindir. Qozoqboy Yo'ldoshevning Hamid Olimjon Ijodiga bag'ishlangan "El yuragidagi shoir" nomli 2009-yildagi maqolasida Muqannaga zulmga toqat qilolmaydigan, o'z erkini himoya qilgan kishilar timsoli deb yozadi. Ammo 2022-yilda tadqiqodchi G.M.Imomova "O'zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning poetik konsepsiyasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida "Tilim lashkari" hikoyasini Fitratning "Qiyomat" hikoyasi bilan solishtirgan holda tahlil qilgan. Olima hikoyani diniy hikoya deb ataydi. Muqannaning payg'ambarlik va Xudolikni da'vo qilishi islomga qarshilik kabi g'ayrushuriy harakatlar qilgan, sehr-jodudan foydalangan deb munosabat bildiradi. "Tilim lashkari" hikoyasida ham uning kelishini bildiruvchi jodu shamolining esishi, insonlarni bu vaqtda uydan chiqmay yashirib olishi, unga yo'liqqan kishining qismati og'ir bo'lishi Hakim obrazi orqali ochilgan. Muqanna (Niqobli)ning aslida ham qahramon niqobi ostida harakat qilgan axloqsiz kimsa ekani so'nggi tadqiqodlar orqali ko'rsatib berildi. Xususan, Narshaxiy, Tabariy, Beruniy singari buyuk olimlar Muqanna xalqning boshiga ko'p yomonliklar keltirgani haqida ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Asar yangicha, zamonaviy yo'nalishda yaratilgan bo'lsa ham, genezisi xalq og'zaki ijodi, mifologiyasiga borib taqaladi. Asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda yozuvchi xalq rivoyatlariga tayanadi. "Isajon Sulton ijodida milliy ma'naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli sujetlar tanlash adibning uslubiy o'ziga xosligini belgilaydi. Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi, bayon uslubida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o'xshash jabrlangan, soddalik, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o'y-xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi[1,143].

I.Sulton asarlarida shamol ba'zan el boshidan baraka sochuvchi, mayinligi va o'ynoqiligi bilan kayfiyatni ko'taruvchi, yo'l boshlovchi(Ozod) yoki aksincha yo'ldan adashtiruvchi (Shamolli kecha), ayrim hollarda jazolovchi oliy qudrat xususiyatlarini namoyon etadi. O'quvchiga tez-tez

ADABIYOTSHUNOSLIK

yo'liqib, turli vaziyatlarni oldindan xis ettiradigan, ba'zan syujetning burilish nuqtasini belgilaydigan shamol detali (ba'zan obraz darajasida) yozuvchi biolamidagi cheksiz badiiy imkoniyat. Adib tabiatni ekani haqida olim Y.Solijonov aytib o'tgan edi. Adib tabiatni xuddi inson kabi jonlantiriladi. Bu ijodkorning o'ziga xos badiiy-estetik dunyosini va mahoratini belgilashda, personajlar ruhiy holatini xis qilishda tadqiqodchi va kitobxonga yordam beradi. Zamonaviy adabiyot namunalari eng qadimgi badiyatdan oziqlanishi asar badiiy qimmatini oshirishda alohida o'rin tutadi. Folklorning ajoyib namunalari bilan to'yingan hikoyalari haqida tadqiqodchi F.A.Qurbonova shunday yozadi:

"Isajon Sulton ijodida milliy ma'naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli sujetlar tanlash adibning uslubiy o'ziga xosligini belgilaydi[1]. Hikoyalar badiiy qurilishi, bayon uslubidagi afsona va rivoyatlar, qahramonlardagi soddalik, oddiylik o'quvchi diqqatini tortadi. Isajon Sulton asarlarida shamolning turli talqinlarini ko'rish mumkin. Shamolga yuklatilgan ma'no yuki asarning mohiyatini yoritib berishda muhim ahamiyatga ega. Tabiat tasvirlari, xususan, shamol detali badiiy asarda syujetni harakatga keltiruvchi kuch, voqealar jarayoniga parallel ravishda harakat qiladigan va ma'lum hodisalarga ishora beradigan vosita vazifasini bajaradi.

Shamol bilan bog'liq holatlar zamonaviy yozuvchilardan Nazar Eshonqul asarlarida ham bir qadar mavjud bo'lib, unchalik ko'zga tashlanmasa ham tahlilda muhim ramziy ma'no yukini tashiydi. "Adib asarlarida majoziy, ko'chma ma'noli tasvirlar ta'rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta'minlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar ko'chma ma'noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi"[2]. Adibning "Bepoyon osmon" hikoyasida shamoldan birgina o'rinda foydalanilgan. Uni ilg'ay olgan o'quvchi muallif bu o'rinda nega shamolni qo'llaganini mulohaza qilsa, tahlilda ko'p holatlarga oydinlik kirita oladi. Hikoyada Oyto'ldi enam deb ta'riflanayotgan qahramon timsolida umr bo'yi kelinlik uyiga beminnat xizmat qilgan, hech qachon nolimagan, munis va mushfiq ayolning achchiq qismati ochib beriladi. Turmush o'rtog'iga vafodorligidan uning aybini berkitish, erkak boshini egilmasligi uchun umrini fido qilgan, ammaning qilmishlariga sabr qilib yashagan hokisor inson qiyofasi aks ettiriladi. Oyto'ldi enaning armoni nima edi? Befarzandligimi, bunda o'zining hech bir aybi bo'lmasa ham hamma uni aybdor deb bilishimi? Ayniqsa, o'zining yoshlikdagi dugonasi bo'lgan qayinsinglisi – ammaning dashnomlari, xo'rliklariga chidashi, befarzandligiga erining aybdor ekani haqidagi shifokor xulosalarini xatto eridan ham berkitib yashagani bir ayol matonatining chegarasi yo'q mo'zija ekanini ko'rsatadi.

Asarda Oyto'ldi enaning honadonga kelin bo'lib kelish jarayoni bitta gap bilan qistirib ketilgan:

"..men tengilarning deyarli hammasining xotirasida qishloq ko'chalarida yor-yor aytib uzatib kelishayotganda shamol olib qochib ketgan ro'moli izidan yugurib yurganda bo'yni-yu ko'ksini bezab turgan zebu gardon jilosida yuzi xuddi to'lin oyday yorishib ketgan kelinchak bo'lib qolgan ayolga nisbatan boshqa hech kim har bir harfida jonu jahonni o'rtaydigan iddao bilinib turgan bunday so'zlarni yozishga jur'at etolmasdi"[3].

Keltirilgan parchada qishloq ko'chalarida yor-yor bilan uzatib kelishayotgan oyday kelinchakning ro'molini olib qochgan shamol tasviri beriladi. Shamol nima uchun aynan kelinning ro'molini uchirib ketdi? Muallif bu holatni xayrsiz qismatning bir ishorasi sifatida beradi. Ramziy ma'noda shamol "oyday kelin"ni ohohlantirish uchun yo'lni boshqa tarafga burdi, hozir ro'moli izidan yugurib borayotgan qiz, keyin umrbod dardiga darmon istab har erga yugurdi(farzand ko'rish uchun bormagan joyi qolmadi), ammo chora topolmay dunyodan tirmoqqa zor bo'lib o'tdi. Bu erga shamol ayolning, ko'ngilsizliklariga oldindan qilingan bashoratdek tasavvur uyg'otadi. Ma'lumki, har bir "san'at asarining kuchi mazmundagi ehtirosni, "dard"ni o'quvchi, eshituvchi yoki tomoshabinga "yuqtira bilish"da ko'rinadi"[4]. Shamoldagi holat, ruhiyat ham beixtiyor o'quvchiga ko'chadi, ya'ni asar davomida qahramon dardiga chora izlaydi. Bu o'rinda shamol orqali asar pafosi ochiladi, dard kitobxonga yuqtiriladi.

XULOSA VA TAVSIYA

"Bepoyon osmon" hikoyasi mazmun muallifning "Qultoy" hikoyasiga yaqin turadi. Ikkisida ham butun umr xo'rangan, qadr topmagan, oyoqosti bo'lgan obraz bor va hikoya syujeti shu obraz atrofida shakllantiriladi. Hikoyada Uljon o'z onasi ekanini bilmay Arxizolni umr bo'yi xo'r lab kelishi,

Arzixolning hech qachon o'g'liga onasi ekanini aytmasligi, qancha jabr-sitam cheksa ham nolimasligi, umrining oxirigacha hammaning tekin xizmatkori bo'lib qolishi, majruh bir o'jizaning iztirobli hayoti o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. "Bepoyon osmon" hikoyasidagi Oyto'ldi enadan farqli ravishda "Qultoy" hikoyasidagi Arzixol ham ma'nani, ham jismonan jabr ko'radi, chunki salkam hayvoniy xarakterdagi Uljon unga tinmay azob beradi, savalaydi, uning ayol ekani, yarim jon, nogironligini o'ylab ko'rmaydi, ayashni hayoliga ham keltirmaydi. Oyto'ldi enaga amma ma'naviy zug'um o'tkazib doimo ta'qib qilgan, ruhiy iskanja yashatgan bo'lsa, Uljoy Arzixolga umuman inson muomalasini qilmadi. O'lgunicha xo'rladi, xatto o'ligi malol keldi, qattiq qishda o'lib qolgani uchun ham Arzixolni aybladi. O'quvchi maymoq ayolga achinadi, nima uchun degan savol qarshisida qayta-qayta javob izlaydi. Nega bu mushtipar ayol bir mushtumzo'rning tayoqlariga chidab umr bo'yi o'zinigina qarg'ab yashadi? Nega sabr qildi, odamlar aytganidek, boradigan boshqa eri yo'qligi uchunmi? Bu jumboqning javobi asar oxirida echiladi. Ayolning o'limidan keyin, u Uljonga xola emas, onasi ekani, yoshlikda o'ylamay qilgan xatosining jabrini bir umr tortgani va o'zini shunga loyiq deb bilgani o'rta chiqadi. U bolasi uchun, o'g'li Uljonning tinch hayoti uchun hammasiga chidaganligi oshkor bo'lgan bo'lsa, Oyto'ldi ena haqidagi haqiqat ham uning vafotidan keyin oydinlashadi, mutlaqo aybsiz ekani, ammo suyuqli insonning erkaklik sha'nini asrash uchun ma'lomatlariga, qarg'ishlarga sabr qilganligi ayon bo'ladi. Bu ikki ayol qismatidagi o'xshashlik, ikkisi ham hayoti ayanchli, huquqi poymol qilingan va ikkisi ham hech qachon nolimagan, ikkisi ham odamlardan, xatto eng yaqinlaridan sir saqlagan (Uljon Arzixolni o'z onasi ekanini bilmaganidek, amaki ham befarzandligining sababchisi xotini emas, o'zi ekanini bilmay yashagan) ular haqidagi haqiqatlar, o'limlaridan keyin oshkor bo'lgan. Buni Nazar Eshonqulning o'ziga xos kompazitsion usuli deb aytish mumkin. Shuningdek, hikoyalardagi shamol detali taqdirga ishora qilganini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
2. F.A.Qurbonova. Isajon Sultonning "Toshkelinchak" hikoyasida folklorizmlarning o'rni. INDIA INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY.
3. Sulton I. Qoraqush yulduzining siri. Toshkent..2019. –221.b.
4. NAZAR ESHONQULNING MODERN ASARLARI TAHLILI Nurafshon Oripova Olimon qizi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7162347C:/Users/User/>
5. N.Eshonqul.Momoqo'shiq. Qissa va hikoyalar.Toshkent, G'ofur G'ulom ijodiy matbaa uyi.2019.